



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**Umumiy o'rta ta'lismuassasasi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari
bo'yicha o'rribbosari va sinf rahbarlarining lavozim yo'riqnomasini
tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 21-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lismuassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari va sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini oshirish va ularning ish faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Umumiy o'rta ta'lismuassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosarining lavozim yo'riqnomasi 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lismuassasasining sinf rahbarining lavozim yo'riqnomasi 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lismuassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosarining namunaviy ish rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lismuassasalarida o'tkaziladigan sinf soatlarining namunaviy mavzular rejasi 4-ilovaga muvofiq;

Sinf rahbari daftari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Haftaning juma kunidagi birinchi dars sinf rahbarlari va tegishli mutaxassislar tomonidan "Sinf soati" sifatida o'tilishi yo'lga qo'yilsin.

3. Ta'limgashishchilik shartnoma qurilishini boshqarmasi (A.Kamalov) bir kun muddatda mazkur buyruqni Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazsin va o'quv yili davomida joylardagi ijrosini nazorat qilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash maqsadida uning mazmun-mohiyatini keng pedagogik jamoaga yetkazish, umumiy o'rta ta'lismuassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari va sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy choralar ko'rish;

umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari va sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etishda ushbu hujjatlar talablariga qat’iy amal qilinishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (D.Sobirova) ushbu buyruqni vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga joylashtirsin.

6. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Xalq ta’limi vazirining quyidagi buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin:

2020-yil 30-iyuldagи “Umumiyl o‘rta ta’lim muassasasining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari va sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini oshirish haqida”gi 180-sonli buyrug‘i;

2021-yil 22-fevraldagи “Umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida 5-sinfdan boshlab yagona sinf rahbari faoliyatini tashkil etish haqida”gi 41-sonli buyrug‘i;

2021-yil 1-martdagи “Umumiyl o‘rta ta’lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 52-sonli buyrug‘i.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.



Vazir

X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “ 27 ” - iyun,
190 - son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 27-iyundagi
190-son buyrug‘iga
1-ilova

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosarining lavozim
YO‘RIQNOMASI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo‘riqnomaga umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining (keyingi o‘rinlarda direktor o‘rinbosari deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari hamda faoliyatini samarali tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Direktor o‘rinbosari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyruqlariga hamda mazkur yo‘riqnomaga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

2-bob. Direktor o‘rinbosarining asosiy vazifalari va funksiyalari.

3. Quyidagilar direktor o‘rinbosarining asosiy vazifalari hisoblanadi:
ta’lim muassasasida ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil qilish;
tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiqish, ijrosini nazorat qilish;
ta’lim muassasasi o‘quvchilari hamda pedagoglari ishtirokidagi ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishidagi tadbirlarning sifati va samaradorligi monitoringini amalga oshirish;

ta’lim muassasasida turli to‘garaklar va sport seksiyalarining faoliyat yuritishini ta’minlash;

milliy an’ana va qadriyatlar, xalqimizning boy ma’naviy merosi asosida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil qilish;

o‘quvchilarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yozgi ta’til davrida ularning kunduzgi dam olish oromgohlarida dam olishi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish;

ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar sifati va natijalarini tahlil qilish;
sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy faoliyatiga rahbarlik qilish, ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar holati va natijalarini monitoring qilish, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda ota-onalar deb yuritiladi) bilan hamkorlik qilish;

o‘quvchilarning tartib-intizomi va davomati, tarbiyaviy ishlar samaradorligini nazorat qilish;

o‘quv yili davomida har juma kuni tashkil etiladigan “Sinf soati”ning o‘tkazilish samaradorligini monitoring qilish;

o‘quvchilar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish masalalari bo‘yicha huquq-tartibot, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

ichki ishlar profilaktik hisobiga, maktab ichki ro‘yxatiga olingan o‘quvchilar hisobi va hisobotini yuritish, ular bilan profilaktik tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash;

ta’lim muassasasida “xavf guruhi”ga kiruvchi (notinch, nosog‘lom, to‘liq bo‘lмаган oila) o‘quvchilarning umumiy ro‘yxatini shakllantirish, maktab inspektor-psixologlari bilan birgalikda individual yondashuv asosida alohida tarbiyaviy ishlar olib borilishini tashkil etish;

san’atkorlar, sportchilar, jamoat arboblari, urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, ijodiy kechalar va boshqa tadbirlar o‘tkazilishini tashkil qilish;

pedagog xodimlar uchun o‘quv yili davomida har oyning uchinchi jumasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish;

vatanparvarlik, insoniylik, millatlararo do‘stlik va totuvlik tamoyillariga asoslangan o‘quvchilar jamoasining shakllanishiga tegishli sharoitlarni yaratish;

o‘z malakasini oshirib borish, yo‘nalishi bo‘yicha tuman, mintaqqa va respublika miqyosidagi turli seminarlarda ishtirok etish;

voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishining, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan “O‘quvchi”, “Davomat”, “Tig” kabi profilaktik reydlarda ishtirok etish;

sinf rahbarlari va maktab psixologlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

4-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Kamalak” va “Yoshlar ittifoqi” sardorlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, tarkibi 14 kishidan iborat 4-7-sinflarda har bir sinfdan 1 nafardan sinf “Kamalak” sardori”, 8-11-sinflarda 1 nafardan sinf “Yoshlar ittifoqi” sardori” tanlagan holda, “Maktab sardorlari kengashi” saylovini tashkil etish;

o‘quv yili davomida sardorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

tarbiyaviy ishlar yuzasidan sinf rahbarlarining hisobotlarini eshitish, pedagogik kengashlarda umumiy hisobot berish.

Direktor o‘rinbosari qonun hujjaligiga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

4. Direktor o‘rinbosari o‘ziga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishida:

Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari-Harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari bilan birgalikda vatanparvarlik ishlarini muvofiqlashtirish;

har tomonlama yetuk, barkamol, ma’naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;

o‘quvchilar o‘rtasida Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

o‘quvchilar bilan ishlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me’yorlarini tarbiya jarayoniga tatbiq etish, o‘quvchilarda mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirish;

tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘quvchilarning g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish, tadbirlarga “xavf guruhi”ga kiruvchi o‘quvchilarni muntazam ravishda jalb etish;

b) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo‘nalishida:

“Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligidagi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, reja asosida kengash majlislarini tashkil etish;

o‘quvchilarning ta’lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish;

o‘quvchilarning turli diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, targ‘ibot ishlarini tashkil etish;

o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish;

darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarning ota-onalari hamda huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish, natijalarini reja asosida direktor huzuridagi yig‘ilishlarda muhokama etib borish;

v) o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish yo‘nalishida:

5 ta muhim tashabbus doirasida ta’lim muassasasida fan, sport, badiiy-estetik, san’at, texnik, ekologik, sayyohlik, o‘lkashunoslik va boshqa yo‘nalishlarda to‘garaklar, klublar faoliyatini tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ularni to‘garaklarga jalb etish ishlarini muvofiqlashtirish;

qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish ishlarini tashkil etish;

o‘quvchilarning yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta’til kunlarini mazmunli o‘tkazishi uchun sinf rahbarlari va ota-onalar hamkorligida sharoit yaratishni muvofiqlashtirish;

sinf rahbarlari bilan birgalikda o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlagan holda sinfdan va maktabdan tashqari, ekskursiya, ma’naviy-ma’rifiy, ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishga, sayohatlar uyushtirishga bevosita rahbarlik qilish;

g) pedagogik jamoa bilan birgalikda:

“O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanan tartibi to‘g‘risidagi nizom”, “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchi va o‘quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari”, “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning mazmun-mohiyatini va talablarini ta’lim

muassasasining har bir xodimi, o'quvchilari, ularning ota-onalari e'tiboriga yetkazish, ular tomonidan rioya etilishini nazorat qilish;

zarur hollarda mobil telefonlardan foydalanish, ichki tartib va odob-axloq qoidalariga ta'lif muassasada rioya etilish holati bo'yicha masalalarni pedagogik kengash, direktor huzuridagi va ota-onalar yig'ilishlari muhokamasiga kiritish.

Direktor o'rribbosari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

5. Direktor o'rribbosari quyidagilarni bilishi lozim:

amaldagi umumiy o'rta ta'lif sohasini va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;

jamoani boshqarishning samarali usullarini, boshqarish psixologiyasi yutuqlarini;

bolalarni vatanparvarlik ruhida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash usullarini;

voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlarni;

davlat ta'lif standartlari talablari va uning mazmunini;

xodimlarni ma'naviy-moddiy rag'batlantirish tizimlari va metodlarini;

pedagogika fani va amaliyoti, boshqaruvi psixologiyasining jahon va mamlakat miqyosidagi erishilgan yutuqlarini;

ta'lif muassasasi va o'qituvchilar faoliyatini tahlil qila olish, ta'lif muassasasi faoliyatidagi muammolarni aniqlash, ularni hal qilishning samarali yo'llarini topishni;

ta'lif muassasasining tarbiyaviy tadbirlar dasturlari va tarbiyaviy ishlar rejalarini ishlab chiqishni;

ta'lif muassasasi faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida monitoring qilish, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni;

pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, pedagogik jamoada qulay psixologik muhit yaratishni.

6. Direktor o'rribbosari zimmasiga mazkur yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalarni yuklash, ularni faoliyatiga oid bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

7. O'quvchilarning ta'lif muassasasidan tashqarida, darsdan keyingi paytdagi xatti-harakatlari uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ularning ota-onalari javobgar hisoblanadi.

Bunday holatlarda direktor o'rribbosariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilmaydi.

3-bob. Direktor o'rribbosarining huquq va majburiyatları

8. Direktor o'rribbosari faoliyatiga doir vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

ta'lif muassasasidagi tarbiya jarayonini tashkil etish va nazorat qilish;

sinf rahbarlari bilan o‘quvchilar jamoalarini o‘rganish, sinf rahbarlarining tarbiyaviy ishlari sifat-samaradorligi va mazmunini, bolalar ijodiy birlashmalari (to‘garak, klub, seksiya) faoliyatini nazorat qilish;

sinf rahbarlari, pedagoglar, ota-onalar, mahalla, ijodiy tashkilotlar bilan ishlash mazmuni, shakl va usullarini tanlash, uni ta’lim muassasasi an’analariga muvofiq ravishda amalga oshirish;

darslarda, darsdan va maktabdan tashqari tadbirdarda, sinf rahbarlari tomonidan taklif etilgan tadbirdarda ishtirok etish;

har bir pedagog xodimning ma’naviy-ma’rifiy tarbiya yo‘nalishidagi ishlari, o‘quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etishdagi natijalari asosida moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha taklif kiritish;

o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha ota-onalarni ta’lim muassasasiga taklif etish, zarur hollarda tegishli idora va tashkilotlar vakillari bilan birgalikda oilalarga tashrif buyurish;

mahalliy hokimlik qoshidagi Bolalar masalalari bo‘yicha idoralararo milliy komissiyasi ishida, tashkilot va idoralardagi ta’lim muassasasi o‘quvchilarining ta’lim-tarbiyasiga oid kengashlarda, voyaga yetmaganlar ta’lim-tarbiyasiga oid yig‘ilishlarda, tarbiya muammolariga bag‘ishlangan nazariy-amaliy, metodik ishlarda qatnashish;

boshqa ta’lim-tarbiya muassasalarining ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish va amaliyatga tatbiq etish;

pedagogik va metodik kengash yoki sinf rahbarlari uslubiy birlashmasi kengashlariga masalalar kiritish, muhokama qilish;

ta’lim-tarbiya ishlarida yuqori ko‘rsatgichlarga erishgan sinf rahbarlarini rag‘batlantirish va taqdirlash bo‘yicha rahbariyatga taklif kiritish;

voyaga yetmaganlarni ta’lim-tarbiyasiga munosib hissa qo‘shayotgan ota-onalarni, mahalla faollarini, mehnat faxriylarini rag‘batlantirish va taqdirlash uchun taklif kiritish.

Direktor o‘rinbosari o‘z vazifalarini bajarishda qonun hujjaligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

9. Direktor o‘rinbosarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni shakllantirish va tizimli tashkil etish;

sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilar davomati yuritilishini nazorat qilish, tegishli tashkilotlarning vakillari bilan birgalikda dars mashg‘ulotlariga surunkali va muntazam qatnashmaydigan o‘quvchilarning oilaviy ahvolini, darsga kelmaslik sabablarini o‘rganish, ularni darsga to‘liq jalb etish choralarini ko‘rish, zarur hollarda ularga nisbatan ta’sirchan choralar belgilash bo‘yicha tegishli tashkilotlarga rahbariyat nomidan yozma murojaat kiritish;

ta’lim muassasalariga biriktirilgan inspektor-psixologlar o‘quvchilarnig xatti-harakati, odob-axloqi va davomatida yuzaga keladigan muammolarda belgilangan tartibda chora-tadbir ishlarini amalga oshirish;

“O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalinish tartibi to‘g‘risidagi nizom”, “Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchi va o‘quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari”, “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy

etish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablariga pedagog xodimlar, o‘quvchilar, ularning ota-onalari (ta’lim massasasiga tashrif buyurgan fuqarolar) tomonidan rioya etilishini nazorat qilish, nizom talablarining buzilish holatlari kuzatilganda, ularga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rish bo‘yicha taklif kiritish;

amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq farzand tarbiyasida ota-ons mas’uliyati, majburiyati va javobgarligi to‘g‘risida ota-onalar o‘rtasida targ‘ibot tushuntirish ishlarini tashkil etish;

barcha umumta’lim fanlari o‘qitilishida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirilishini nazorat qilish, pedagoglarga uslubiy yordam ko‘rsatish;

o‘zining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarini muntazam ravishda oshirib borish.

Direktor o‘rinbosari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

4-bob. Direktor o‘rinbosari faoliyatini tashkil etish tartibi

10. Direktor o‘rinbosari ta’lim muassasasi direktori (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi ta’lim muassasalari direktori) tomonidan tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Belgilansinki, maktab direktori o‘rinbosarining kelgusidagi ish faoliyatini samarali tashkil etishi uchun shaxsiy ma’suliyat maktab direktori zimmasiga yuklatiladi.

Direktor o‘rinbosarligiga ta’lim muassasasida o‘zining tashkilotchilik qobiliyati va ishiga fidoyilik bilan yondashadigan, jamoa orasida ibratli hamda namunaviy xulq-atvorga ega bo‘igan, o‘zining yetakchilik qobiliyati bilan pedagogik jamoa va o‘quvchilar o‘rtasida obro‘ qozongan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni puxta egallagan va kamida 5 yil pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan oliy pedagogik ma’lumotli (birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi) o‘qituvchilar tarkibidan tanlanadi.

11. Direktor o‘rinbosari o‘quvchilar bilan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qiladi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarga umumiylahbarlik qiladi.

12. Direktor o‘rinbosari tadbirdorda, o‘quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqari ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalariiga rioya qilinishini ta’minlaydi, tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha ota-onalar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, mahalliy hokimlik, huquq-tartibot idoralari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

13. Direktor o‘rinbosarining ish rejasini ta’lim muassasasining umumiylahbarlik qiladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi.

14. Direktor o‘rinbosari bevosita ta’lim muassasasi direktoriga bo‘ysunadi.

15. Direktor o‘rinbosari tomonidan quyidagi hujjatlar yuritiladi:

- yillik ish reja va ijrosi yuzasidan hujjatlar to‘plami (yuqori tashkilotlar rejasini, 5 ta muhim tashabbuslar va ta’lim muassasasi umumiylahbarlik qiladi)

ishlab chiqilgan /tasdiqlangan/ ish rejasi, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tegishli hujjatlar);

- **voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir hujjatlar to‘plami** (Bolalar masalalari bo‘yicha idoralararo milliy komissiyasi bilan ishlash hujjatlari, ichki ishlarning profilaktik hisobida turuvchi o‘quvchilar yig‘ma jildlari, odam savdosiga, giyohvandlikka, diniy ekstremizm va aqidaparastlikka, OITSga qarshi kurash, yo‘l harakati va yong‘in xavfsizligi yo‘nalishiga oid yuqori tashkilotlar rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan /tasdiqlangan/ ta’lim muassasasining tadbirlar rejasi, undagi tadbirlarning bajarilishi yuzasidan tegishli hujjatlar);

- **“Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga doir hujjatlar to‘plami** (yuqori tashkilotlarning /shu jumladan xotin-qizlar bilan ishlash boshlang‘ich tashkiloti/ hamkorlik rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan /tasdiqlangan/ ta’lim muassasasining tadbirlar rejasi, undagi tadbirlarning bajarilish yuzasidan tegishli hujjatlar);

- **o‘quvchilar davomati va bo‘s sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga doir hujjatlar to‘plami** (direktor o‘rinbosari tomonidan umumlashtirilgan va tuman /shahar/ Maktabgacha va maktab ta’limi tuman bo‘limiga taqdim etilgan davomat bo‘yicha ma’lumotlar, muntazam va surunkali dars qoldiruchi o‘quvchilar va noqobil oila farzandlari bilan olib boriladigan tadbirlar rejasi, undagi tadbirlarning ijrosi yuzasidan hamda o‘quvchilarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to‘garaklar faoliyati va ta’til kunlariga doir hujjatlar).

16. Direktor o‘rinbosari faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv yili choraklari va yakuni bo‘yicha hisobotlar tayyorlaydi hamda ta’lim muassasasi direktoriga topshiradi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Maktabgacha va maktab ta’limi boshqaruv idoralari direktor o‘rinbosari yordamidan faqat ushbu yo‘riqnomada belgilangan vazifalar doirasida ta’lim muassasasi direktori bilan kelishilgan holda foydalanishi mumkin.

18. Mazkur yo‘riqnomaga talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 27-iyundagi
190-son buyrug‘iga
2-ilova

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi sinf rahbarining lavozim YO‘RIQNOMASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo‘riqnomaga umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sinf rahbarlarining (keyingi o‘rinlarda sinf rahbarlari deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini hamda ish faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Sinf rahbarlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyruqlariga, mazkur yo‘riqnomaga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

2-bob. Sinf rahbarlariga qo‘yiladigan talablar, ularning asosiy vazifalari va funksiyalari

3. Sinf rahbari quyidagi mezonlarga asosan tanlab olinadi:

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan;
- maktabda asosiy ishchi sifatida faoliyat olib borayotgan (*umumta’lim muassasalarida mehnatini soatbay (shu jumladan o‘rindoshlik) asosda faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilarning sinfga rahbarlik qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi*);
- boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lgan;
- o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida mas’uliyat bilan yondasha oladigan;
- boshlang‘ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang‘ich sinfga biriktirilgan o‘qituvchilarga yuklatiladi.

4. Quyidagilar sinf rahbarlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

ta’lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o‘ziga biriktirilgan sinfdagi o‘quvchilarning (keyingi o‘rinlarda sinf o‘quvchilari deb yuritiladi) belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo‘lish;

o‘quvchilarning o‘sib-ulg‘ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o‘quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas’uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg‘otish;

sinf o‘quvchilarining ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasini tashkil etishda o‘qituvchilar, psixolog, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda ota-onalar deb yuritiladi), ta’lim muassasasi rahbariyati orqali Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o‘quvchilar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish bo‘yicha o‘tkaziladigan “O‘quvchi”, “Davomat” kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

5. Sinf rahbarlari o‘zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

har tomonlama yetuk, barkamol – ma’naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o‘quvchilarining qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

pedagogik va o‘quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo‘lga qo‘yish;

ertalabki saflanishlarda sinf o‘quvchilarining belgilangan tartibda to‘liq ishtirok etishlarini ta’minalash;

biriktirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta’minalash;

sinf rahbarlari o‘z faoliyatini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiyl rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi.

Jumladan:

a) o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishida:

o‘quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

o‘quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi buniyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini singdirish, yurtimizdagи buniyodkorlik ishlari, inshootlar va ma’rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

sinfda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq meyorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish;

o‘quvchilarni o‘zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

b) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo‘nalishida:

barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligidagi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o’tkazib borish;

o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, kam ta’minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ota-ona qarovisiz qolgan, vasiylik va homiylikka berilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

o‘quvchilarning ta’lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish;

o‘quvchilar kundalik.com elektron platformasidan foydalanishini nazorat va tahlil qilish, o‘quv qurollarining mavjudligi va to‘g‘ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish;

o‘quvchilarning turli diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ‘ibot ishlarini olib borish;

ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish, o’tkazgan tarbiyaviy ishlari yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishslashda ularning ota-onalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish va huquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish, natjalari bo‘yicha direktor huzuridagi yig‘ilishlarga ma’lumot kiritib borish;

o‘quvchilarni ota-onalar va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalash, ularga kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

v) o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish yo‘nalishida:

o‘quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan to‘garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o‘lkashunoslik yo‘nalishidagi to‘garaklarga, klublarga jalb qilish;

qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

milliy madaniyatning asosi bo‘lgan musiqa va qo‘sishiq, kino, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me’morchilik kabi xalq amaliy san’ati turlari vositasida o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalb etish;

o‘quvchilarni yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta’til kunlarini mazmunli o‘tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish;

turli (bayramlar, ko‘rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar) ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda sinf o‘quvchilarining faol ishtirokini ta’minalash;

g) o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘nalishida:

sinf jamoasi bilan birgalikda sinf sardorlarini saylash va sinf ishlarini rejalashtirish, o'quvchilar davomatini muntazam kuzatib borish va tahlil qilish;

o'quvchilarni tabiatga muhabbat, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va asrab-avaylashga hamda tozalikka o'rgatish, ekologik savodxonligini oshirish, ularda mehnatsevarlik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida sinf jamoasi bilan kelishgan holda "Sinf xonasi navbatchilari" reja-grafiqini tuzib olish;

sinf o'quvchilarining ehtiyoj va qiziqishlarini har tomonlama o'rganish, ularni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash;

har bir o'quvchining o'zi uchun kun tartibini tuzishlarini tashkil etish va uning bajarilishini ota-onalar hamkorligida nazorat qilish;

o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro, shaxs va muassasalar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qonun hujjatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida tushunchalar berib borish, qonunga hurmat hissini shakllantirish;

d) pedagogik jamoa bilan birgalikda:

sinf o'quvchilarning ta'lif muassasasi (ustavida belgilangan) ichki tartib va odob axloq qoidalari bajarishlarini ta'minlash;

kundalik.com elektron platformasi va boshqa hujjatlarning to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

o'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish, tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida sinf majlislarini o'tkazib borish;

o'qishda yutuqlarga erishgan, umumiyl foydali mehnatda, muktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlash, ularning ota-onasiga tashakkurnoma, minnatdorchilik xatlari yuborish bo'yicha taklif berish;

sog'lom turmush tarzi, oilaviy hayot gigienasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e'tibor berish;

o'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish bo'yicha tegishli fan o'qituvchilari, muktab psixologi bilan birgalikda yordam berish;

ta'lif muassasasi tibbiyot xodimlari, o'qituvchilari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish;

o'quvchilarning ta'lif muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena qoidalari va me'yoriy talablariga rioya qilishini ta'minlash;

kasbiy malakasini oshirib borish, yo'nalishi bo'yicha turli seminarlarda ishtirok etish.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

6. Sinf rahbarlari zimmasiga mazkur yo'riqnomasi va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalarni yuklash, ularni ish vaqtidan tashqari, faoliyatiga oid bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Ta'lif muassasasidan tashqarida darsdan keyingi paytdagi o'quvchilarning xatti-harakatlari uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ularning ota-onalari javobgar hisoblanadi.

Bunday holatlarda sinf rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilmaydi.

3-bob. Sinf rahbarlarining huquq va majburiyatlari

8. Sinf rahbarlari ushbu yo'riqnomada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

sinf o'quvchilarining dars mashg'ulotlari va imtihonlarida ishtirok etish;

bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil etish bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyatiga taklif kiritish;

o'quvchilar tarbiyasiga oid ilg'or ish tajribalarini amalga oshirish bo'yicha ta'lim muassasasi rahbariyatiga tashabbus bilan chiqish;

sinf faollari ishini nazorat qilish, ular bilan birlashtirishda yig'ilish kun tartibini belgilash va sinf yig'ilishlarini uyushtirish;

o'qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, mакtab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlashga tavsiya etish;

sinf soatlari rejalashtirishda o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan mavzularga o'zgartirishlar kiritish;

sinf soatlari mavzularining ta'sirchanligini oshirish uchun mакtab psixologini bilan yaqindan hamkorlik qilish, zarur holatlarda dars jarayoniga mакtab psixologini taklif qilish;

o'quvchilarning ota-onalari bilan ta'lim-tarbiya masalalari yuzasidan suhbatlashish, hamkorlik qilish, pedagogik maslahatlar berish;

o'quvchilar xulqini baholash;

hamkorlikda olib boriladigan tadbirda muntazam qatnashmaydigan, farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalar bo'yicha mакtab kuzatuв kengashiga, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi" Jamoat kengashiga murojaat qilish.

Sinf rahbarlari o'z vazifa va majburiyatlarini bajarishda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9. Sinf rahbarlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

sinf o'quvchilarining davomatini nazorat qilish, sababsiz darsga kelmagan o'quvchilarning ota-onalari bilan (telefon orqali) bog'lanib, darsga kelmaganlik sabablarini o'rganish, natijalari bo'yicha mакtab rahbariyatiga axborot (zarur hollarda yozma) kiritish;

"O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom", "Umumiy o'rta ta'lim mакtabi o'qituvchi va o'quvchilarining ichki tartib va odob-axloq qoidalari" hamda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona mакtab formasini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom" mazmun-mohiyatini va talablarini sinf o'quvchilari va ularning ota-onalariga yetkazish;

o'quvchining xulqi, xatti-harakatlarida o'zgarishlar aniqlasa, ularning ota-onalariga xabar berish, hamkorlikda ish olib borish, natijalari bo'yicha mакtab rahbariyatiga axborot (zarur hollarda yozma) kiritish;

amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko‘ra, farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati, majburiyati va javobgarligi to‘g‘risida o‘quvchilarning ota-onalari o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ularning ota-onalari bilan muloqotda vazmin va xushmuomala bo‘lish;

o‘zining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilimlarini oshirib borish.

4-bob. Sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish tartibi

10. Sinf rahbarlari ta’lim muassasasi direktori tomonidan mazkur yo‘riqnomaning 3-bandida belgilangan mezonlarga javob beradigan o‘qituvchilar tarkibidan tayinlanadi va ozod etiladi.

11. Bir o‘qituvchiga faqatgina bitta sinf rahbarligi topshiriladi. Direktor o‘rnbosarlar, psixologlar sinf rahbari bo‘lishi mumkin emas.

12. Sinf rahbarlari faoliyatini ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosari nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

13. Sinf rahbarlari tomonidan o‘tiladigan “Sinf soati”ning yillik taqvim mavzular rejası ta’lim muassasasining umumiy rejası asosida ishlab chiqiladi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosari tomonidan tasdiqlanadi.

14. Sinf rahbarlarining yillik ishlarini rejalashtirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazishga yordam berish, ularning samaradorligini oshirish, ishlarini muvofiqlashtirish, ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida sinf rahbarlari uslubiy birlashmalari tashkil etiladi. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmasiga barcha sinf rahbarlari a’zo hisoblanadi.

15. Sinf rahbarlari tomonidan quyidagi hujjatlar yuritiladi:

- sinf rahbari daftari;

- maktabning ichki ro‘yxatiga kiritilgan tartibbuzar, tarbiyasi og‘ir va surunkali dars qoldiruvchi o‘quvchilar bilan amalga oshirilgan ishlar yig‘ma jildi.

16. Sinf rahbarlari o‘quv yili choraklari va yakuni bo‘yicha hisobotlar tayyorlaydi hamda faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha hisobotlarni ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosariga topshiradi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Ta’lim muassasasi ma’muriyati sinf rahbarlari yordamidan faqat ushbu yo‘riqnomada belgilangan vazifalar doirasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosari bilan kelishilgan holda foydalanishi mumkin.

18. Mazkur yo‘riqnomada talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab
 ta'limi vazirining
 2023-yil 27- iyundagi
 190-son buyrug'iiga
 3-ilova

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASINING MA'NAVIY-MA'RIFIY IShLAR BO'YICH A DIREKTOR
 O'RINBOSARINING O'QUV YILIGA MO'LJALLANGAN
 NAMUNAVIY ISh REJASI**

Nº	BELGILANGAN VAZIFALAR	MUDDAT	MAS'UL	KUTILAYOTGAN NATIJA
I. MAKTAB PEDAGOGIK KENGASHI MAJLISI MUHOKAMASIGA KIRITILADIGAN MASALALAR				
1.1	Umumiy o'rtta ta'limga muassasasida yangi o'quv yili davomida amalga oshiriladigan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda vatanparvarlik yo'nalishidagi asosiy vazifalar to'g'risida.	avgust	MMIBDO', sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari	Umumiy o'rtta ta'limga muassasasida yangi o'quv yili davomida amalga oshiriladigan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda vatanparvarlik yo'nalishidagi asosiy vazifalar to'g'risida.
1.2	Umumiy o'rtta ta'limga muassasasida voyaga yetmaganlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalash, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olish, ularni g'oyaviy va ommaviy madaniyat tahdidlari ta'siriga tushishdan saqlash borasida " Huquqbuzarlik profilaktikasi kuni "da amalga oshirilgan ishlar tahlili (ichki ishlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari ishtirokida).	noyabr	MMIBDO', sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida	Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilinadi, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olish borasidagi hamkorlik tadbirlari yanada jonlanadi.
1.3	Umumiy o'rtta ta'limga muassasasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga qaratilgan ishlar natijadorligi to'g'risida (5-11-sinflar misolida).	yanvar	MMIBDO', sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari	Umumiy o'rtta ta'limga muassasasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, yosh avlod ongi va qalbini turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, alohida ijtimoiy psixologik va tarbiyaviy ko'makka muhtoj bo'lgan o'quvchilar

				bilan olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish choralari belgilanadi.
1.4	Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasining xotin-qizlar qo‘mitasi boshlang‘ich tashkiloti faoliyati, xususan, qizlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini zamonaviy talablarga mos tashkil etish holati to‘g‘risida.	mart	MMIBDO‘, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilar	Umumiy o‘rtta ta’lim maktabida xotin-qizlarning mavqeini, tibbiy va huquqiy savodxonligini oshirish, xususan, qizlarning qiziqishlari, qobiliyat va iqtidorini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar tahlil qilinadi va yanada yaxshilash tadbirlari belgilanadi.
1.5	Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasi huzuridagi “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligidagi Jamoat kengashining ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish borasidagi faoliyati tahlili va istiqboldagi vazifalari to‘g‘risida.	may	MMIBDO‘, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilar	Jamoat kengashi faoliyati barcha ishtirokchilar tomonidan amalga oshirilgan aniq ishlar misolida tahlil qilinadi, muammo va kamchiliklar aniqlanadi, bartaraf etish choralari belgilanadi.

II. MAKTAB DIREKTORI HUZURIDAGI IShLAB ChIQARISH MAJLISIDA MUHOKAMA ETILADIGAN MASALALAR

2.1.	Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi bayramini munosib nishonlash, “Mustaqillik darslari”ni yuqori saviyada o‘tkazishga tayyorgarlik holati to‘g‘risida.	avgust	MMIBDO‘, metod birlashma rahbarlari, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilar	Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi bayramini munosib nishonlash va “Mustaqillik darslari”ni zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda o‘tish bo‘yicha tashkiliy vazifalar belgilanadi.
2.2	Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasida sinf rahbarlari uslubiy birlashmasi faoliyatini tashkil etish, sinf rahbarlari faoliyatiga metodik va tashkiliy yordam to‘g‘risida.	sentyabr	MMIBDO‘, sinf rahbarlari	Sinf rahbarlari faoliyatini yanada jonlantirish, ularni ma’naviy-axloqiy tarbiya faoliyatiga yanada kengroq va faolroq jalb etish, o‘z navbatida ularga tegishli metodik yordamni tashkil etish holati tahlil qilinadi va takomillashtirish vazifalari belgilanadi.

	1-oktyabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida.		MMIBDO‘, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari	Pedagoglarning kasb bayramini keng jamoatchilik ishtirokida yuqori saviyada va ko‘tarinki ruhda nishonlash, ularga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish orqali jamiyatda o‘qituvchilik kasbining nufuzi va obro‘-e’tiborini yanada oshirish bilan bog‘liq tashkiliy tadbirlar ishlab chiqiladi.
2.3	O‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy holati, individual qobiliyatları, qiziqishlari va muammolarini o‘rganish, shu asosda ular to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasini yaratish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida. Umumiyl o‘rtalim muassasasi kutubxonasi va axborot resurs markazi faoliyati, ish samaradorligi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning a’zolik holati hamda kitobxonlik targ‘iboti to‘g‘risida.	oktyabr	MMIBDO‘, maktab psixologlari, sinf rahbarlari MMIBDO‘, kutubxona mudirasi	O‘quvchilarning ijtimoiy – psixologik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar banki shakllantiriladi va faoliyatida samarali foydalanoladi. O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikning ahamiyatini keng targ‘ib qilish, axborot-resurs markazining ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlaridagi o‘rni va rolini yanada oshirishga erishiladi.
2.4	Umumiyl o‘rtalim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalarining amaldagi ijrosi to‘g‘risida (sinflar kesimida).	noyabr	MMIBDO‘, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari Jamoat kengashi a’zolari	Pedagogik jamoa o‘rtasida ijro va mehnat intizomini mustahkamlash, o‘quvchilar o‘rtasida ongli intizom va odob-axloq qoidalariga izchil rioya qilish fazilatlari shakllantiriladi.
2.5	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun – umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida.	dekabr	MMIBDO‘, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati keng targ‘ib qilinadi, Davlat ramzlariga bo‘lgan hurmat hissi kuchayadi, o‘quvchilar ongiga qonunga itoatkorlik tushunchalari yanada chuqurroq singdiriladi, huquqiy madaniyati va saviyasi oshiriladi.

2.6	14-yanvar – “Vatan himoyachilari kuni”ni nishonlash, o‘quvchilarda harbiy vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish va yanada takomillashtirish to‘g‘risida.	yanvar	MMIBDO‘, sinf rahbarlari, chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari	“Vatan himoyachilari kuni” munosib nishonlanadi, o‘quvchilar o‘rtasida harbiy vatanparvarlik keng targ‘ib qilinadi, vatan himoyachisi bo‘lishga va harbiy kasbiga hurmat va qiziqish kuchaytiriladi. Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitish, harbiy – vatanparvarlik burchaklarini tashkil etish va bu borada jamoatchilik bilan hamkorlik holati tahlil qilinadi.
2.7	Ta’lim muassasalarida hafta kunlarining nomlanishi doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasi to‘g‘risida. Ta’lim muassasasida o‘tkaziladigan “Ertalabki saflanish”, “Ma’naviyat kuni”, “Sinf soati” tadbirlarining natijadorligi to‘g‘risida.	fevral	MMIBDO‘, sinf rahbarlari MMIBDO‘, sinf rahbarlari	Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimli tashkil etiladi, o‘quvchi va o‘qituvchilarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi oshadi, hamkor tashkilotlar bilan aloqalar yanada rivojlanadi. O‘tkazilayotgan tadbirlarning tashkiliy jihatlari, sifati va saviyasi, o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida tutgan o‘rnini tahlil qilinadi va takomillashtirish choralarini belgilanadi.
2.8	O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar holati, o‘quvchilarning turli ko‘rik-tanlovlari, musobaqlar, viktorina, uchrashuv, davra suhbati kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi ishtiropi to‘g‘risida.	mart	MMIBDO‘, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari	O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etiladi, hamkorlikdagi ishlar samaradorligi yanada oshadi, o‘quvchilarning qobiliyati va iqtidori barvaqt kashf etiladi, rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlari yaratiladi.
2.9	Umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilar salomatligini muhofaza qilish, tibbiy madaniyatni shakllantirish, ommaviy sport va jismoniy tarbiyani keng targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to‘g‘risida.	aprel	MMIBDO‘, sinf rahbarlari	Tibbiy madaniyatni targ‘ib qilish, “Salomatlik kuni” doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlar sifati va samaradorligini oshirish, sport zallari va sport maydonchalaridan unumli foydalanish holati tahlil qilinadi va takomillashtirish vazifalari belgilanadi.

